

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI
HUZURIDAGI STATISTIKA AGENTLIGI



**SAMARQAND VILOYATIDA CHAKANA VA
ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI**



*Dastlabki ma'lumot
2023-yil yanvar-avgust*




CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Statistik ma'lumotlar jamiyatda sodir bo'layotgan ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va jarayonlarni tavsiflash va boshqarishning eng muhim vositasidir. Hozirda yuqori sifatli statistik ma'lumotlardan foydalanmasdan davlat siyosatida to'g'ri boshqaruv qarorlarini qabul qilish imkonsiz. Shular qatorida savdo statistika ko'rsatkichlarini shakllantirish ham muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Jumladan, ulgurji va chakana savdo hamda umumiy ovqatlanish korxonalarini savdo aylanmasi statistikasi ko'rsatkichi shular jumlasidan.

2023-yil 1-sentabr holatiga viloyat bo'yicha chakana savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalar soni **12 262** tani tashkil etib, (o'sish sur'ati **86,6** %). Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **41** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **12 221** tani tashkil qildi.

Shu jumladan, savdo sohasida yuridik shaxs tashkil etmasdan faoliyat olib borayotgan YaTTlar va uyushmagan savdo (jismoniy shaxslar)ning kuzatuvlar asosida yig'ilgan ma'lumotlar, chakana savdo ko'rsatkichlariga kiritilgan.

Chakana savdo aylanmasining asosiy ko'rsatkichlari



Yuqorida qayd etilgan tadbirkorlik subyektlari faoliyati natijasida, 2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning chakana savdo tovar aylanmasi **16 952,4** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **105,7** % ni tashkil etdi.

Shu jumladan, yirik korxonalarining tovar aylanmasi **3 219,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **98,1** %), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **13 732,5** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **107,7** %), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 645,6** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **113,6** %) tashkil etdi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI



Chakana savdo aylanmasi – savdo sohasida yakuniy iste'mol uchun aholiga tovarlarni donalab yoki ko'p bo'lmagan miqdorlarda naqd pulga (bank kartalari orqali) sotishni nazarda tutuvchi faoliyat.


	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – avgust oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	16 952,4	105,7	3 219,9	98,1	13 732,5	107,7
Samarqand sh.	6 118,9	105,7	2 682,8	93,0	3 436,1	118,3
Kattaqo'rg'on sh.	1 022,7	101,3	1,0	87,0	1 021,7	101,3
tumanlar:						
Oqdaryo	408,7	106,0	9,1	2,1 m.	399,6	104,8
Bulung'ur	696,5	105,4	21,4	112,1	675,1	105,2
Jomboy	644,8	109,1	81,5	121,8	563,3	107,5
Ishtixon	560,8	108,6	4,4	99,6	556,3	108,7
Kattaqo'rg'on	895,2	105,3	36,3	5,5 m.	858,9	101,8
Qo'shrabot	213,3	103,6	3,4	91,7	209,9	103,8
Narpay	659,7	101,0	4,9	82,2	654,8	101,1
Payariq	612,9	103,6	5,0	87,8	608,0	103,8
Pastdarg'om	804,3	103,1	27,4	114,0	776,9	102,7
Paxtachi	421,2	103,7	4,5	88,3	416,7	103,9
Samarqand	1 242,8	109,1	294,6	142,3	948,2	101,7
Nurobod	267,0	101,8	3,3	94,2	263,7	101,9
Urgut	1 822,9	107,6	28,5	97,8	1 794,4	107,8
Toyloq	560,7	112,4	11,8	105,4	548,9	112,6

2023-yilning yanvar-avgust oylarida 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan Toyloq (**112,4** %), Samarqand (**109,1** %), Jomboy (**109,1** %), Ishtixon (**108,6** %), Urgut (**107,6** %) tumanlarida hamda Samarqand shahrida (**105,7** %) chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.



YILLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI


Chakana savdo tovar aylanmasi dinamikasi,
yanvar-avgust, mlrd. so'm



So'nggi **6 yillikda** chakana savdo tovar aylanmasining yuqori o'sish sur'ati 2022-yilda kuzatildi. Bunda chakana savdo tovar aylanmasi 2021-yilning mos davriga nisbatan **109,8 %** ni yoki **15 146,5** mlrd. so'mni tashkil qildi.


Chakana savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati oylar kesimida, foiz

2022-yil, 2023-yil yanvar-avgust oylari



2023-yilning yanvar-avgust oylarida o'sish sur'ati 105,7 % ni tashkil qildi.

Hududlar kesimida chakana savdo tovar aylanmasi ulushi, foiz



- | | | |
|-----------------|---------------------|-------------|
| ■ Samarqand sh. | ■ Kattaqo'rg'on sh. | ■ Oqdaryo |
| ■ Bulung'ur | ■ Jomboy | ■ Ishtixon |
| ■ Kattaqo'rg'on | ■ Qo'shrabot | ■ Narpay |
| ■ Payariq | ■ Paxtachi | ■ Samarqand |
| ■ Pastdarg'om | ■ Nurobod | ■ Urgut |
| ■ Toyloq | | |

Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Samarqand shahri **36,1 %** bilan **6 118,9** mlrd. so'mni tashkil etdi.


Viloyat chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulush esa, Qo'shrabot tumani **1,3 %** bilan **213,3** mlrd. so'mni tashkil etdi.

Viloyatning chakana savdo tovar aylanmasida Toyloq (**112,4 %**), Samarqand (**109,1 %**), Jomboy (**109,1 %**), Ishtixon (**108,6 %**) va Urgut (**107,6 %**) tumanlarida yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi.


CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI TARKIBI

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **13 732,5** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **7,7 %** ga ko'paydi. Viloyat miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **81,0 %** ni tashkil etdi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz




Yirik korxonalarining eng yuqori o'sish sur'atiga ega hududlar, foiz



Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining tovar aylanmasi hajmi, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **98,1 %** ni va **3 219,9** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **19,0 %** ulushiga to'g'ri keldi.

CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI, foiz



■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Kattaqo'rg'on shahri (**99,9 %**) va Payariq (**99,2 %**), Ishtixon (**99,2 %**), Narpay (**99,3 %**) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarining ulushi **19,0 %** ni tashkil etib, eng katta ulush Samarqand shahri (**43,8 %**) va Samarqand (**23,7 %**), Jomboy (**12,6 %**), Kattaqo'rg'on (**4,1 %**) tumanlarida kuzatildi.

AHOLI JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI

Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajmi, ming. so'm	O'sish sur'ati, foiz
Samarqand viloyati	4 096,1	103,5
Samarqand sh.	10 615,8	103,5
Kattaqo'rg'on sh.	10 879,7	99,4
tumanlar:		
Oqdaryo	2 402,7	103,5
Bulung'ur	3 508,7	103,1
Jomboy	3 468,6	106,5
Ishtixon	2 067,0	106,3
Kattaqo'rg'on	3 096,6	103,2
Qo'shrabot	1 526,1	101,5
Narpay	2 942,3	99,1
Payariq	2 284,4	101,1
Pastdarg'om	2 135,7	101,0
Paxtachi	2 798,6	102,3
Samarqand	4 625,3	106,7
Nurobod	1 668,4	99,8
Urgut	3 323,5	105,0
Toyloq	2 586,2	109,8

2023-yilning yanvar-avgust holatiga o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **4 096,1** ming. so'mni (2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **103,5** % ni) tashkil etdi.


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**10 615,8** ming. so'm), Kattaqo'rg'on shahri (**10 879,7** ming. so'm) va Samarqand (**4 625,3** ming. so'm), Bulung'ur (**3 508,7** ming. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI




Viloyat bo'yicha 2023-yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **1 645,6** mlrd. so'mni tashkil etib, 2022-yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **113,6** % ni tashkil etdi. Shu jumladan, 12-bozor (oylik) va 12-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, dehqon bozorlarda savdo faoliyati bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xo'jaliklarida yetishtirgan mahsulotlarini sotish hajmi **681,4** mlrd. so'mni (**173,6** %), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **964,2** mlrd. so'mni (**91,3** %) tashkil etdi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so'm




Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI

Ichki savdo ko'rsatkichlarini shakllantirishda uyushmagan savdo tovar aylanmasi ham hisoblanadi. Bunga dehqon (oziq-ovqat) bozori hamda chorva mollari, parrandalar va boshqa hayvonlar bozorida jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo hajmlari kiradi. Uyushmagan savdo tarkibiga jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari hisobga olinadi.

Hududlar kesimida uyushmagan savdo tovar aylanmasi o'zgarish sur'ati, foiz



Dehqon (oziq-ovqat) bozori – keng turdagi qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarining va uni qayta ishlashdan olinadigan mahsulotlarning savdo rastalari, savdo o'rinlari, turg'un savdo shaxobchalari (shu jumladan savdo pavilonlari, kioskalari)dan foydalangan holda chakana savdoni tashkil etgan doimiy yoki vaqtincha amal qiluvchi mulkiy kompleks hisoblanadi.












UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING ASOSIY KO'RSATKICHLARI

	Jami, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, %	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, %	Chorva bozorlari, mlrd. so'm	2022-yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	1 645,6	113,6	681,4	173,6	964,2	91,3
Samarqand sh.	126,2	147,2	120,2	144,9	6,1	2,2 m.
Kattaqo'rg'on sh.	196,6	69,3	87,5	2,8 m.	109,0	43,1
tumanlar:						
Oqdaryo	95,2	103,4	8,3	71,9	86,9	108,0
Bulung'ur	138,7	114,4	34,7	100,6	104,1	119,8
Jomboy	169,5	158,9	116,6	2,8 m.	52,8	81,4
Ishtixon	127,5	151,5	58,8	6,9 m.	68,7	90,8
Kattaqo'rg'on	107,9	101,7	33,0	124,5	75,0	94,2
Qo'shrabot	73,5	109,1	18,6	2,1 m.	54,8	93,7
Narpay	19,7	104,3	13,3	84,5	6,4	2,0 m.
Payariq	110,6	100,5	45,7	181,3	64,9	76,5
Pastdarg'om	61,5	91,3	4,8	36,0	56,7	104,9
Paxtachi	66,6	116,3	24,4	122,9	42,2	112,8
Samarqand	63,8	148,6	4,4	142,8	59,4	149,0
Nurobod	54,5	85,6	19,7	77,2	34,7	91,2
Urgut	97,6	143,0	59,4	2,4 m.	38,3	88,4
Toyloq	136,2	187,9	32,0	165,7	104,2	196,0

* – xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka taribdagi tadbirkorlar (YATT)ni qo'shmagan holatda;











– jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari va chorva (parranda) mollari sotilishi hisobga olingan.

2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvini o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **681,4** mlrd. so'mni tashkil qildi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**307,7** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari		Mrd. so'm
	Yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari	307,7
	Non va non mahsulotlari	106,1
	Don mahsulotlari (mosh, loviya, guruch va boshqalar)	73,4
	Tovuq go'shti	51,6
	Qurilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari (yongoq, bodom, pista va boshqalar)	38,5
	Sut va sut mahsulotlari (sir, brinza,...)	19,2
	Tuxum	23,4
	Chorva mollari va parrandalari uchun har xil yem – xashak	10,6
	Ziravorlar	22,1
	Tuzlamalar	18,0
	Gullar, o'simlik va nihol ko'chatlari (manzarali va qishloq xo'jaligi)	2,9
	Nooziq-ovqat tovarlari	7,9

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI, mlrd so‘m

2023-yilning yanvar-avgust oylarida viloyatning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollari sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuv o‘tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko‘ra savdo aylanmasi hajmi **964,2** mlrd. so‘mni tashkil etdi. Bunda har-xil yoshdagi qoramollar savdosi **779,1** mlrd. so‘m, qo‘y va echkilar **132,4** mlrd. so‘mni, otlar **47,7** mlrd. so‘mni, parrandalar **5,0** mlrd. so‘mni tashkil qildi.

Chorva mollari (parrandalar)		Mrld. so‘m
	2 yoshdan kata bo‘lgan qoramollar	462,0
	1 yoshdan 2 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	200,7
	1 yoshgacha bo‘lgan yosh mollar	116,4
	Qo‘ylar	108,5
	Otlar	47,7
	Echkilar	23,9
	Kurka, o‘rdak, g‘oz	1,5
	Tovuqlar	3,5
	Quyونlar	0,03
	Qushlar	0,009

UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI



2023-yil 1-sentabr holatiga umumiy ovqatlanish sohasida faoliyat yuritayotgan tijorat korxonalari soni **3 328** tani tashkil etib, o'sish sur'ati **84,2 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **6** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **3 322** tani tashkil qildi.


2023-yilning yanvar-avgust oylarida ovqatlanish korxonalarining savdo aylanmasi **680,4** mlrd. so'mni (**119,7 %** ni) tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **19,7 %** ga ko'paydi. Bunda savdo aylanmasining **66,1 %** ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri keldi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	680,4	119,7	230,9	172,7	449,5	103,4
Samarqand sh.	315,1	100,8	54,6	88,3	260,5	103,9
Kattaqo'rg'on sh.	13,9	103,3	-	-	13,9	103,3
tumanlar:						
Oqdaryo	2,5	99,5	-	-	2,5	99,5
Bulung'ur	15,9	113,3	8,2	129,2	7,7	100,0
Jomboy	10,4	104,6	-	-	10,4	104,6
Ishtixon	3,5	101,9	-	-	3,5	101,9
Kattaqo'rg'on	7,7	102,3	-	-	7,7	102,3
Qo'shrabot	5,5	101,9	-	-	5,5	101,9
Narpay	6,8	101,7	-	-	6,8	101,7
Payariq	7,2	101,4	-	-	7,2	101,4
Pastdarg'om	52,6	95,1	12,0	79,1	40,6	101,1
Paxtachi	7,0	102,5	-	-	7,0	102,5
Samarqand	32,2	101,7	-	-	32,2	101,7
Nurobod	6,1	104,4	-	-	6,1	104,4
Urgut	17,5	105,9	-	-	17,5	105,9
Toyloq	176,5	2,5 m.	156,1	3,1 m.	20,4	104,8

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi

2023-yilning yanvar-avgust oylariiga avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi (*IFUT-2 45-bo'lim 45.2 va 45.40.3 kodlaridan tashqari – motorli transport vositalari va mototsikllarni ta'mirlash va texnik xizmat ko'rsatish*) **1 469,5** mlrd. so'mni tashkil etib, o'tkan yilning mos davriga nisbatan **108,2 %** ni tashkil qildi. Shuningdek, yirik korxonalar savdo hajmi **262,5** mlrd. so'm (o'sish sur'ati **95,7 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyetklari savdo hajmi **1 042,9** mlrd. so'mni (o'sish sur'ati **111,3 %**) tashkil qildi.

Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi o'sish sur'ati, foiz



Avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari ulgurji va chakana savdo aylanmasi




Hududlar kesimida ma'lumot

	Hajm, mlrd. so'm	Ulushi, foiz
Samarqand viloyati	1 469,5	100,0
Samarqand sh.	1 069,3	72,8
Kattaqo'rg'on sh.	8,1	0,6
tumanlar:		
Oqdaryo	7,3	0,5
Bulung'ur	4,5	0,3
Jomboy	1,1	0,1
Ishtixon	6,3	0,4
Kattaqo'rg'on	11,0	0,7
Qo'shrabot	0,3	0,0
Narpay	5,6	0,4
Payariq	1,6	0,1
Pastdarg'om	0,3	0,0
Paxtachi	3,2	0,2
Samarqand	38,7	2,6
Nurobod	19,3	1,3
Urgut	1,1	0,1
Toyloq	291,8	19,9


Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqori hajm Samarqand shahri (**1 069,3** mlrd. so'm), Toyloq (**291,8** mlrd. so'm) va Samarqand (**38,7** mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

Ulgurji savdo tovar aylanmasi – qayta sotish maqsadida sotib olingan va tadbirkorlik faoliyatida foydalanish yoki o‘z foydalanishi (qayta ishlash) uchun uchinchi tomon tashkilotlari va yakka tartibdagi tadbirkorlarga o‘zgartirmagan holda jo‘natilgan tovarlarning qiymati, ushbu tovarlar uchun haq to‘lanadigan yoki to‘lanmaganligidan qat’iy nazar.

Hududlar kesimida ulgurji savdo tovar aylanmasi hajmi, mlrd. so‘m



Viloyat bo‘yicha 2023-yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **8 655,1** mlrd. so‘mni tashkil etib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **15,0 %** ga o‘ydi.



Kichik biznes subyektlarining ulgurji savdo aylanmasidagi ulushi statistik hisoblarga qaraganda **5 171,5** mlrd. so‘mni tashkil qilib, 2022-yilning mos davriga nisbatan **91,6 %** ga to‘g‘ri keldi. Viloyatda ushbu sektorning ulgurji savdo hajmidagi ulushi **59,8 %** ni tashkil qildi.


ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK VA KICHIK KORXONALAR



Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariga ega yirik korxonalar Samarqand shahrida (2,0 m.), Tayloq (2,6 m.), Pastdarg'om (131,7 %), Samarqand (146,4 %) va Bulung'ur (106,2 %) tumanlarida kuzatildi.

2023-yil 1-sentabr holatiga ulgurji savdo sohasida faoliyat ko'rsatayotgan tijorat korxonalarini soni **2 922** tani tashkil etib, o'sish sur'ati **102,1 %** ni tashkil etgan. Shundan, faoliyat ko'rsatayotgan yirik korxonalar soni **37** tani, kichik korxonalar va mikrofirmalar soni **2 885** tani tashkil qildi.

	Jami mlrd. so'm	2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, %	Yirik korxonalar mlrd. so'm	2022-yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, %	Kichik biznes va mikrofirmalar, mlrd. so'm	2022-yil yanvar – avgust oylariga nisbatan, %
Samarqand viloyati	8 655,1	115,0	3 483,6	184,7	5 171,5	91,6
Samarqand sh.	5 706,7	117,7	2 844,5	2,0 m.	2 862,2	83,4
Kattaqo'rg'on sh.	212,0	99,3	1,3	26,5	210,7	101,0
tumanlar:						
Oqdaryo	65,7	113,3	-	-	65,7	113,3
Bulung'ur	225,3	101,6	175,0	106,2	50,3	88,5
Jomboy	120,4	85,0	25,0	76,6	95,4	87,5
Ishtixon	68,1	103,6	-	-	68,1	103,6
Kattaqo'rg'on	146,0	100,8	-	-	146,0	101,3
Qo'shrabot	22,8	92,7	0,1	75,1	22,7	92,8
Narpay	96,7	95,1	0,4	63,5	96,3	95,3
Payariq	50,0	103,6	-	-	50,0	103,6
Pastdarg'om	336,4	104,1	103,0	131,7	233,4	95,3
Paxtachi	17,4	97,0	0,2	25,8	17,2	100,3
Samarqand	644,3	110,1	183,2	146,4	461,1	100,2
Nurobod	53,9	97,9	0,1	57,8	53,8	98,0
Urgut	401,5	104,9	-	-	401,5	104,9
Toyloq	487,9	164,8	150,8	2,6 m.	337,1	142,2



**Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi
Teln. 66-235-65-80**